

MILLIY VALYUTA KURSI BARQARORLIGI VA UNING IQTISODIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI.

Yuldasheva Umida

TDIU "Xalqaro moliya" kafedrası DSc., professor umida_yu@mail.ru

Negmurodova Mulkiya

TDIU, Moliya Fakulteti talabasi mulkiyanr@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirlari keltirib o'tiladi. Shuningdek, valyuta kursining doimiy tebranib turishining iqtisodiy taraqqiyotga va tashqi savdo jarayonlariga ko'rsatadigan ta'sirlari ham nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *valyuta kursi, barqarorlik, iqtisodiy o'ish, inflyatsiya, pul-kredit, eksport-import, investitsion muhit, Markaziy bank, milliy valyuta.*

KIRISH

So'ngi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari va iqtisodiy o'zgarishlar tashqi savdo aloqalarining kengayishiga olib kelmoqda. Bu jarayonlar o'z o'rnida milliy iqtisodiyotlar uchun valyuta kursining barqarorligini muhim omilga aylantirmoqda. Shuningdek, valyuta kursi mamlakatlarning tashqi savdo balansi, eksport-import hajmi, inflyatsiya darajasi va umuman olganda umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababdan, valyuta kursini barqarorlashtirish va uni bozor mexanizmlariga moslashtirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha qator qarorlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Xususan, yuridik shaxslar o'z mablag'larini banklarda joriy xalqaro valyuta operatsiyalarini, shu jumladan, tovar, ish va xizmatlar importi, foydani repatriatsiya qilish, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to'lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo'lmagan operatsiyalarni amalga oshirish uchun chet el valyutasiga cheklovlersiz erkin konvertatsiya qilishlari mumkinligi aytib o'tilgan. Jismoniy shaxslar ham tijorat banklarining konversion bo'limlarida chet el valyutasini erkin sotib olishi, sotib olingan mablag'larni xalqaro to'lov kartalariga o'tkazib, ulardan xorijda hech qanday cheklovlersiz, shu jumladan, bank hisobvaraqlari orqali xorijda o'qish, davolanish va boshqa maqsadlardagi to'lovlar uchun foydalanishi mumkinligi ta'kidlangan. Valyuta siyosatini liberallashtirish

sharoitida bank tizimi barqarorligini ta'minlash borasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni nazorat qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Valyuta bozorini liberallashtirish jarayonida davlat iqtisodiy siyosatining mazkur Farmonda belgilangan ustuvor yo'nalishlarining to'liq ijrosi ta'minlanishi barcha tashqi savdo faoliyati qatnashchilariga teng sharoit yaratadi hamda O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining mavqeyini kuchaytiradi, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda Markaziy Bankning pul-kredit siyosati ham alohida o'ringa ega. Markaziy Bank tomonidan so'ngi yillarda inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan inflyatsiya bo'yicha doimiy maqsad (target) 5 foiz etib belgilangan va ushbu maqsadga erishish vazifasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetning ta'minlanishi aholi va tadbirkorlarning daromadlari va jamg'armalarining xarid qobiliyatini saqlaydi, ularga uzoq muddatli xarajatlarini rejalashtirish imkonini beradi hamda barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga qulay sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, doimiy past inflyatsiya mamlakatga barqaror investitsiyalar kirib kelishiga, inflyatsiya mukofotining kamayishi evaziga foiz stavkalarining pasayishiga, milliy valyutaga bo'lgan ishonchning ortishi sharoitida iqtisodiyotning tashqi xatarlarga ta'sirchanligining pasayishiga xizmat qiladi.

Investitsion muhitni rivojlantirish milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri sanaladi. Chunki, valyuta konvertatsiyalari bo'yicha kafolatlar, soddalashtirilgan tartiblar va investitsiyalarning erkin kirib chiqishi mamlakat uchun kapital oqimini oshiradi. Bu jarayon esa, o'z navbatida, milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy o'sishda yordam beradi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Valyuta barqarorligi haqida iqtisodchi olimlarning fikrini ketirib o'tishdan avval valyuta va valyuta kursing tushunchalariga to'xtalsak. Avvalo, har bir mamlakat tashkil toparkan ular o'z mustaqil pul birligiga ega bo'lishi kerak. Valyuta esa jahon bozorida, davlatlar o'rtasida pul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklari sifatida yuzaga keladi. Valyuta kursi esa bu bir valyutani boshqabir valyutadagi ifodasi yoki bahosi hisoblanadi. Shuning uchun valyuta kurslarining muvozanatsizligi sharoitida banklar va tadbirkorlar ushbu muvozanatsizlik bilan bog'liq xavf-xatarlarni boshqarishda katta qiyinchiliklarga duch keladi.

Ingliz iqtisodchi olimi Jon Meynard Keynes o'zining "A Tract on Monetary Reform" kitobida ichki narxlar barqarorligi va valyuta kursi siyosatining moslashuvchanligi haqida ta'kidlagan hamda bunda pul-kredit siyosati va markaziy banklarning vakolatlari katta ekanligini aytib o'tgan. Aks holda, valyutaning beqarorligi iqtisodiy qiyinchiliklarning asosiy sababi bo'lib, bunday muammolar ishsizlik va narxlarning turli xil o'zgarishiga olib kelishi mumkinligini keltirib o'tgan [1].

Shuningdek, amerikalik iqtisodchi olim Milton Fridmen "The Case for Flexible Exchange Rates" asarida erkin suzuvchi kurs tizimini qat'iy belgilangan kursdan ko'ra mamlakat ichki iqtisodiyotiga samaraliroq bo'lishini e'tirof etgan. Uning fikricha, mamlakat iqtisodiyotida valyuta kurslari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqib belgilansa o'sish bo'ladi [2].

Yana bir amerikalik iqtisodchi Robert Mundell esa "A Theory of Optimum Currency Areas" asarida optimal hudud valyutasi ustida ishlab, iqtisodiy jihatdan integratsiyalashgan hududlarda yagona valyuta siyosati ishlashini aytib o'tgan. Bundan tashqari, valyuta barqarorligini ta'minlashda ishchi kuchi, fiskal siyosati va tashqi savdo muhim omil sifatida qatnashishini ta'kidlagan. Qolaversa, iqtisodchi Nobel Mukofoti sovrindori Paul Krugman ham "Exchange Rate Instability" kitobida valyuta kursining beqarorligi qisqa muddatli kapital oqimiga, investorlar ishonchiga va global moliyaviy bozorlarga ta'sir o'tkazishini keltirib o'tgan [3].


Umuman olganda, har bir mamlakat valyuta barqarorligini ta'minlashni ustuvor yo'nalish sifatida ko'rishi kerak. Chunki, iqtisodchi olimlar ta'kidlagandek, valyuta barqarorligi milliy iqtisodiyotning izchil rivojlanishiga, narxlar barqarorligiga va iqtisodiy faoliyatning xavfsizligiga ta'sir qiladi. Shu sababdan, pul-kredit siyosatini to'g'ri yuritish va tashqi savdoda muvozanatni saqlash mamlakatlar uchun asosiy vazifalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani yozish jarayonida kuzatish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, taqqoslash, asosan xorijiy olimlarning mamlakat valyutasini barqarorlashtirishga qaratilgan nazariyalari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulasa va takliflar ishlanib chiqildi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston bugungi kunda ham milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga va unga ta'sir qiluvchi omillarni nazorat qilishga, shuningdek pul-kredit siyosatini to'g'ri yuritib, iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida so'ngi yillarda valyuta kursi dinamikasi milliy iqtisodiy o'sish, inflyatsiya jarayonlari va tashqi savdo muvozanati bilan bevosita bog'liq holda shakllanmoqda.




1-rasm. O'zbekiston milliy valyutasi kursining AQSH dollariga nisbatan o'zgarishi.

Yuqoridagi rasmda O'zbekiston milliy valyutasi ya'ni so'mning 1 AQSH dollariga nisbati keltirib o'tilgan va bunga bazis yil sifatida 2018-yil olingan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, 2018- va 2025-yillar oralig'ida valyuta kursi doimiy o'zgarib turgan. 2018-yilning o'zida valyuta kursi qayta moliyalashtirish stavkasi jarayonida 1 dollar 4000 so'mdan 8000 gacha oshib ketgan. Mazkur jarayon, bir tomondan, valyutaning qadrsizlanishi kabi qaralgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu real qiymatga qaytish edi, ya'ni so'm bozor tamoyillariga asoslangan holda shakllantira boshlangan. Boshqa tarafdin, dollar kursining keskin oshib ketishi tashqi savdoga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki, bu oraliqda import hajmi ham keskin oshib valyutaga bo'lgan talabni ko'paytirdi. Biroq, valyuta kursining oshishi qisqa muddat uchun "qadrsizlanish" kabi ko'rinsa ham, bu iqtisodiy real sektor uchun foydali bo'ldi, sababi eksport qiluvchi korxonalar raqobatbardosh bo'ldi (ular xorijda mahsulotni arzonroq taklif qila oldi), valyuta bozorida sun'iy cheklovlar yo'qoldi hamda investorlar uchun iqtisodiyot yanada shaffof va prognoz qilinadigan bo'ldi. 2025-yil holatiga kelib 1 AQSH dollari 12000 so'mdan oshishi kuzatilyapti, bu esa o'z navbatida, bozor mexanizmlarining kuchayganini ifodalaydi.



2-rasm. O'zbekistonning 2018-2024-yillar oralig'idagi inflyatsiya sur'ati, iste'mol narxlar indeksi (yillik %da).

Ushbu rasmda O'zbekistonning 6 yil ichidagi inflyatsiya ko'rsatkichi keltirib o'tilgan. Bundan ko'rish mumkinki, inlyatsiya kurs ko'tarilishi natijasida deyarli 18% ga yetgan va bu ko'rsatkich 2021-yilgacha uzluksiz tushishda davom qilgan. 2021-yil va 2022-yil oralig'ida taxminan 10.9% dan 11.5% ga oshgan. Bunga asosiy sabablardan biri so'm kursning 1 AQSH dollariga nisbatan 10400 dan 10800 gacha oshgani va import qilingan tovarlarning, xususan, yoqilg'i, oziq-ovqat, dori-darmon va texnika narxlarining oshish bo'lgan. Keyingi yillarda esa inflyatsiya darajasi 11% dan tushgan va 2024-yilda 9.4% ni tashkil qilgan. Bu esa Markaziy bankning qat'iy pul-kredit siyosati, milliy valyuta barqarorligini saqlashga qaratilgan intervensiyalar va monetar omillarni nazorat ostiga olish natijasidir.



3-rasm. O'zbekistonning so'ngi 3 yil ichidagi Tashqi Savdo Aylanmasi.

Mazkur rasmda O'zbekistonning 2023-, 2024- va 2025- yillardagi Tashqi Savdo Aylanmasi (TSA) aks ettirilgan. Bunda ko'rish mumkinki, mamlakatning 2023-yil uchun TSA ko'rsatkichi 40045.6 mln AQSH dollarini tashkil qilgan va 2024-yilda esa deyarli 2 mln Aqsh dollariga oshgan. Biroq, 2025-yilga kelib TSA bazis yilga nisbatan qariyb 10 mln AQSh dollarigacha oshib, 51435.3 mln AQSH dollariga yetgan. Import va eksport hajmiga keladigan bo'lsak, import hajmi eksportdan yuqorib bo'lib 2023-yilda 23611 AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, eksport hajmi 16434.6 mln AQSH dollarini ko'rsatgan. So'ngi 2 yil ichida esa import hajmi dastlab 2024-yilda 2 mln AQSH dollariga, 2025-yilda esa 3 mln AQSH dollarigacha ko'tarilgan va hozirda 28453.7 mln AQSH dollariga yetgan. Eksport hajmi ham muntazam oshib, 2024-yilda 17503.3 mln va 2025-yilda esa 22981.5 mln AQSH dollariga yetgan. TSA da saldoga keladigan bo'lsak, mamlakatning eksport hajmidan import hajmi yuqoriligi bois doim manfiy bo'lgan va 2023-yildagi -7176.4 mln AQSH dollaridan 2025-yilda -5472.2 mln AQSH dollarigacha tushgan.

Shu bilan birga, valyuta kursi beqarorligi hali ham importga bog'liq tarmoqlar uchun muayyan xavf omili bo'lib qolmoqda. Shuning uchun kelgusida pul-kredit

siyosatini yanada takomillashtirish, eksportni diversifikatsiya qilish va moliya bozorlarining raqobatbardoshligini oshirish milliy valyuta barqarorligini yanada mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, valyuta barqarorligi milliy iqtisodiyotning izchil rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Beqaror valyuta esa iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va tashqi savdo uchun xavf tug'diradi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, valyuta kursining barqarorligi milliy iqtisodiyotda narxlar darajasining izchilligini ta'minlash, tashqi savdoda raqobatbardoshlikni oshirish va investitsion muhitni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pul-kredit siyosatini muvozanatli olib borish, milliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va importga qaramlikni kamaytirish valyuta barqarorligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida".

2. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64069-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2025-yil-yanvar-avgust>

3. <https://data.worldbank.org/indicator/FP.CPI.TOTL>

4. <https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/xalqaro-valyuta-kredit-munosabatlari>

5. <https://uz.wikipedia.org>